



“ONLAYN TO‘LOV TIZIMLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH”

Kazakova Shahnoz Janatbek qizi

Ibodullayeva Zuhraxon Dilshod qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada onlayn to‘lov tizimlarining ahamiyati va ularda axborot xavfsizligini ta‘minlash jarayonlari haqida tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda elektron tijorat kengayib, moliyaviy operatsiyalarning kopayganligi sababli foydalanuvchilarning ma‘lumotlarining daxlsizligini ta‘minlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Onlayn to‘lov tizimlarida axborot xavfsizligini ta‘minlash muhim hisoblanadi, negaki u bevosita foydalanuvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari bilan bog‘liq. Ushbu maqolada onlayn to‘lov tizimlarida uchraydigan xavflar va ularning oldini olishga qaratilgan real choralar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, moliyaviy ma‘lumotlar, onlayn to‘lov, xavfsizlik, mobil to‘lov, digital savodxonlik, himoya usullari, karta ma‘lumotlari, raqamli iqtisodiyot, foydalanuvchi xabardorligi, qo‘shimcha tasdiqlash.

Oxirgi yillarda internetning keng tarqalishi, elektron tijoratning rivojlanishi tufayli onlayn to‘lov tizimlari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida foydalanuvchilarga qulaylik yaratib, xaridlarni samarali va oson amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga onlayn to‘lov tizimlari xavfsizligini ta‘minlash masalasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki foydalanuvchi axborotlarini muhofaza qilish nafaqat foydalanuvchi uchun balki, tashkilotlar uchun ham muhimdir.

Onlayn to‘lov tizimining mohiyati.



Onlayn to'lov tizimi internet orqali pul mablag'larini o'tkizish imkonini beruvchi tizimdir. Ular elektron tijoratning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu tizim xaridor va sotuvchi o'rtasidagi hisob-kitob jarayonini masofadan turib amalga oshirish imkonini beradi. Onlayn to'lov tizimlari orqali kommunal xizmatlar, soliq va shunga o'xshash bir qancha jarayonlar oson amalga amalga oshiriladi. Qolaversa, internet do'konlari ham onlayn to'lov tizimlariga asoslanadi. Bunday tizimlar vatning tejalishiga ham yordam beradi. Onlayn to'lovlar avtomatik tarzda bank hisobvaraqaalari bilan bog'langan bo'ladi. Jarayonlarni amalga oshirish uchun turli veb saytlar va mobil ilovalardan foydalanish zarur. Bunday to'lovlar xalqaro savdoda ham keng qo'llaniladi. Dunyo miqyosida keng ishlatiladigan to'lov tarmoqlariga Visa va Mastercard kiradi. Shunday qilib, onlayn to'lov tizimi raqamli iqtisodiyotning muhim moliyaviy mexanizmi hisoblanadi.

O'zbekistonda onlayn to'lov tizimining rivojlanishi.

O'zbekistonda onlayn to'lov tizimlarining shakllanishi 2000- yillardan boshlandi. Barcha to'lov tizimlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tartibga solinadi. Jumladan, 2004-yil milliy to'lov tizimi hisoblangan – Uzcard yo'lga qo'yildi. 2019-yilda esa yana bir milliy to'lov tizimi – Humo ishga tushirildi. 2019-yilda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun elektron pul va to'lov tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamladi. 2010- yildan boshlab esa mobil ilovalar orqali onlayn to'lovlarni amalga oshirish ommalasha boshladi. Bu esa o'z navbatida kommunal xizmatlar va shu kabi jarayonlarni onlayn amalga oshirishning o'sishiga sabab bo'ldi. Internet do'konlari sonining tobora ortishi ham onlayn to'lov tizimlaridan yanada koproq foydalanishga zamin yaratdi. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy to'lovlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. Kartadan kartaga pul o'tkazish jarayonlari ham odatiy holga aylandi. Bu orqali kiberxavfsizlik choralariga



qaratilgan e'tiborning yanada kuchaydi. Natijada, O'zbekistonda onlayn to'lov tizimlari raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi.

Foydalanuvchiga qulayliklar.

Onlayn to'lov tizimi ko'plab foydalanuvchilarga qulaylik yaratmoqda. Birinchidan bu tizim orqali vaqt tejaladi. Avvallari bank va shu kabi tashkilotlarda foydalanuvchilar navbat kutishlari zarur edi. Bugungi kunga kelib esa bankka borishning hojati yoq. Onlayn to'lovlarni istalgan joyda bir necha daqiqalar ichida amalga oshirish mumkin. Bunday to'lovlar tarixi doimiy saqlanadi. Bu esa o'z navbatida to'lov tarixini nazorat qilishni osonlashtiradi. Qolaversa, kommunal xizmatlar uchun to'lovni uydan chiqmasdan bajarish, avia va temiryo'l chiptalarini onlayn sotib olish, soliq va jarimalarni masofadan to'lash imkoniyati mavjud. Hatto ba'zi to'lovlar uchun bonus va cashback berish xizmatlari bor. Onlayn to'lov tizimi orqali karta yo'qolgan taqdirda uni bloklash mumkin. Umuman olganda, onlayn to'lov tizimlari zamonaviy hayotni ancha tezkor va qulay qiladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash usullari.

Boshqa mamlakatlar singari O'zbekiston hududida ham onlayn to'lovlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshmoqda. Biroq odamlar orasida digital savodxonlik darajasi yetarli emas. Shu bois ko'plab moliyaviy tashkilotlar foydalanuvchilar uchun maslahatlar beradi: Shaxsiy ma'lumotlarni hech kim bilan bo'lishmaslik, onlayn to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan ilovalarni rasmiy manbalardan yuklash, soda bo'lmagan parollardan foydalanish.

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab onlayn to'lovlarda firibgarlik va moliyaviy ma'lumotlarning o'g'irlanishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar oshib bormoqda. Masalan, 2023-yilda internet orqali to'lovlar bo'yicha firibgarlik natijasida **taxminan 41,8 milliard dollar zarar** ko'rilgan — bu ko'rsatkich oldingi yillar bilan solishtirganda oshib bormoqda. Bu raqamlar shuni korsatadiki, garchi onlayn to'lov tizimlari qulay bo'lsa ham, ulardan foydalanishda ehtiyotkorlik bo'lmasa



foydalanuvchi moliyaviy zarar ko'rish turgan gap. Bu zararlar millionlab odamlarni, korxonalarni o'z ichiga oladi va ko'p holatlarda onlayn to'lovlarga bo'lgan ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida biometrik himoya vositalari (barmoq izi, ko'z qorachig'i skaneri, yuzni aniqlash) bank ilovalari va zamonaviy smartfonlarda joriy etilgan. Biometrik ma'lumotlar noyob bo'lganligi sababli foydalanuvchilarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlaydi. Qolaversa ikki bosqichli autentifikatsiya jarayoni xavfsizlikning yanada yuqori bo'lishini nazorat qiladi. Bu jarayon orqali foydalanuvchi faqat parol bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha tasdiqlash bosqichini amalga oshiradi. Masalan, mobil telefonlarga yuboriladigan bir martalik sms kodlar biometrik tekshiruvlarda qollaniladi. Bu esa o'z navbatda parol o'g'irlangan taqdirda ham akkauntni himoya qilishga yordam beradi.

Xulosa:

Onlayn to'lov tizimlari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan bo'lsada, bu jarayonni amalga oshirishda ehtiyotkor bo'lish lozim. Ushbu tizim aholiga yanada qulay bo'lishi uchun yaratilganiga qaramay, u bilan bog'liq xavflar ham yo'q emas. Onlayn to'lov tizimlarida foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash muhim hisoblanadi chunki, u foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq. Onlayn to'lov tizimi O'zbekistonda yangi raqamli davrning boshlanganligi va kelajakda yanada rivojlanishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elektron to'lov tizimlari. – U.Sh. Xamrakulov, E.E. Marupov, O.M. Boynazarov
2. <https://journals.proindex.uz>
3. <https://econferenceseries.com>



4. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79).